



XITOIY TILI VA MADANIYATIDA 心 “xīn” SO‘ZINING TALQINI

Xo‘janberdiyeva Nargiza Utkir qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-kurs talabasi

nxujanberdiyeva@gmail.com

Artikova Z.Z

Ilmiy rahbar: PhD

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada xitoy tilidagi 心(xīn) —“yurak” so‘zining leksik-semantik xususiyatlari, turli birikmalarda qo‘llanilishi va ularning mazmunlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada uning asosiy va ko‘chma ma‘nolari, ularning o‘zaro semantik jihatdan bog‘liqligi, birikmalar tarkibidagi o‘rni ham misollar asosida yoritib boriladi. Tadqiqot davomida ushbu so‘zning 心(xīn) — “yurak”, “qalb”, “ong” degan ma‘nolarni bildiradi. Xitoy tilida bu iyeroglif nafaqat jismoniy yurakni, balki insonning his-tuyg‘ulari, fikri va ruhiy holatini ham ifodalaydi. Maqola xitoy tilidagi leksikologiya va semantikaning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga va chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Leksik-semantik xususiyatlar, leksikologiya, semantika, lug‘aviy birlik, funksional-semantik tavsif, xitoy leksikologiyasi.

АННОТАЦИЯ: В статье анализируется китайский иероглиф 心(xīn) —«сердце». Исследование рассматривает его лексико-семантические свойства, использование в различных словосочетаниях и их значения. Также статья освещает основные и переносные значения 心, их семантическую взаимосвязь, а также роль иероглифа в составе слов, с примерами. Результаты показывают, что 心 обозначает не только «сердце», но и «ум», «внутреннее Я». В китайском языке этот иероглиф выражает чувства, мысли и психическое состояние человека, что делает его ключевым элементом для понимания особенностей китайской лексикологии и семантики.

Ключевые слова: Лексико-семантические свойства, лексикология, семантика, лексическая единица, функционально-семантическое описание, китайская лексикология.

ABSTRACT: This article analyzes the Chinese character 心(xīn) — “heart”. The study examines its lexical-semantic properties, usage in various word combinations, and their meanings. The article also highlights the primary and figurative meanings of 心, their semantic interrelations, and the role of the character within word formations, illustrated with examples. The research shows that 心 conveys not only “heart” but also “mind” and “inner self”. In Chinese, this character expresses human emotions, thoughts, and mental states, making it a key element for understanding the nuances of Chinese lexicology and semantics.

Keywords: Lexical-semantic properties, lexicology, semantics, lexical unit, functional-semantic description, Chinese lexicology.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Tilshunoslik esa til haqidagi mustaqil va aniq fan bo‘lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o‘rganadi⁹⁷. Tilshunoslik fani turli bo‘limlarga bo‘linadi. Muhim yo‘nalishlaridan biri bu - lingvokulturologiya. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi⁹⁸. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigмага xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”⁹⁹.

Tilshunoslikning yana bir muhim bo‘limlaridan biri – leksikologiya. Leksikologiya - tilshunoslikning so‘z va so‘zga teng lug‘aviy birliklar, aniqrog‘i, til boyligi haqida bahs yurituvchi qismidir. Leksikologiya leksikani o‘rganadi, leksika esa, o‘z navbatida, so‘zlardan yoki so‘zlar majmuidan iborat bo‘ladi. Lug‘at tarkibi har bir tilning boyligini aks ettiradi¹⁰⁰. Til so‘zga qanchalik boy bo‘lsa, fikr va maqsadni shunchalik yaxshi va to‘liq bayon etish, eng nozik his-tuyg‘ularni ifodalash mumkin. Til kishilarning turli faoliyati bilan bevosita bog‘langanligi uchun ham tilning lug‘at tarkibi uzluksiz o‘zgarib turadi¹⁰¹. Leksikologiyaning vazifasi muayyan til lug‘at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy omillarni o‘rganish, lug‘aviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarini, tematik guruhlari va mikrosistemalarini aniqlash, lisoniy va uslubiy xususiyatlarini yoritishdan iborat. Leksikologiyaning turlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, leksikologiya umumiy - barcha tillarning boyligini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadigan va xususiy - faqat bir tilning lug‘at boyligini o‘rganadigan turlarga bo‘linadi¹⁰².

1950-1960-yillarda xitoy leksikologiyasiga e‘tibor berish boshlandi va bu bo‘yicha lingvistik jurnallarda ko‘plab maqolalar chop etila boshlandi. Xitoy tilining so‘zlari ko‘p ma‘noli va frazeologik birliklari murakkab va ayni paytda juda moslashuvchan deya tan olindi¹⁰³. Xitoy leksikologiyasining tadqiqot yo‘nalishlari haqida gapiradigan bo‘lsak, u so‘zning semantik tuzilishi, leksik maydon nazariyasi, polisemiya va omonimiya, frazeologiya, terminologiya, yangi so‘zlarni qamrab oladi. Umuman olganda, xitoy tili leksikologiyasi tilning lug‘aviy boyligi, so‘zlarning ma‘no taraqqiyoti va semantik tizimini

⁹⁷ Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). Darslik. – Toshkent, 2020. – B. [4].

⁹⁸ Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). Darslik. – Toshkent, 2020. – B. [66].

⁹⁹ Телия В. Н. Русская фразеология; сем антический, прагматический и лингвокультурологический аспекты -М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. -С. 222.

¹⁰⁰ Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). Darslik. – Toshkent, 2020. – B. [147].

¹⁰¹ Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). Darslik. – Toshkent, 2020. – B. [148].

¹⁰² Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). Darslik. – Toshkent, 2020. – B. [152].

¹⁰³ Горелов В. И. Лексикология китайского языка. Учебное пособие. – Москва: «Просвещение», 1984. – С. [9].



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rganadi. Xitoy tilining analitik tuzilishi, bo‘g‘in tizimi va ko‘p ma‘noliligi uning leksik tizimini o‘ziga xos va murakkab qiladi¹⁰⁴. So‘zning ko‘p ma‘noliligi bu uning ma‘nosi evolutsiyasi natijasida kelib chiqadi. Negiz ma‘nosi asosida vaqtlar o‘tib tilda so‘zning yangi ma‘nolari hosil bo‘ladi¹⁰⁵.

So‘z - xitoy tilining eng muhin birligi bo‘lib, uning leksik tizimida asosiy o‘rinni egallaydi. Xitoy tilida ham boshqa tillar kabi so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi. Ammo, bo‘g‘inlarning ahamiyati hamma tilda bir xil emas. Xitoy tilida alohida bir bo‘g‘in ham semantik ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, xitoy tilida bo‘g‘in nafaqat tovush birligi, balki semantik birlik hamdir¹⁰⁶. Bir necha yillik tarixga ega bo‘lgan xitoy madaniyati xitoyliklarning tafakkuriga, o‘ziga xos fikrlashiga ta’sir ko‘rsatgan. Odamlar qalbidagi barcha o‘yayotgan narsalarni til orqali to‘laligicha ifoda etolmagan. Shu bois so‘zlarni ko‘pma‘noda ishlatish jarayoni vujudga kelgan¹⁰⁷.

Xitoy milliy madaniyati va ma‘naviyatida til yuksak o‘rin egallaydi. Chuqur tarixga ega bo‘lgan iyerogliflar va so‘zlar xitoy millati, davlatshunosligi va umuman xitoy sivilizatsiyasining asosiy manbalari sifatida namoyon bo‘ladi. Xitoy tili millat tarixi va uni o‘z-o‘zini anglash kafolati hisoblanadi¹⁰⁸. Ana shunday so‘zlardan biri bu – 心 (xīn)”. Ma‘lumki, har qanday so‘zning ma‘lum bir ma‘no ifodalashi shu tilda so‘zlashuvchilar uchun yoki shu tilni biluvchilar uchun sir emas, albatta. Har qanday so‘z paydo bo‘lishidayoq o‘z ma‘nosi va tovushlar qiyofasiga (tovush qobig‘iga) ega bo‘ladi¹⁰⁹. 心 (xīn) iyeroglifi semantik jihatdan juda keng qamrovli bo‘lib, insonning ichki dunyosiga oid deyarli barcha asosiy sohalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu so‘zning ko‘p ma‘noliligi xitoy tilining obrazli fikrlashi va madaniy xususiyatlarini namoyon qiladi. 心 (xīn) iyeroglifi (yurak, ong) semantik jihatdan bir necha guruhlarga bo‘linadi. U asosan insonning ichki holatini ifodalaydi. Quyida 心 (xīn) iyeroglifi turli xil semantik guruhlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

1. Hissiyot (emotsiya)

Insonning his-tuyg‘ularini bildiradi:

开心 — xursand

我今天很开心。

Men bugun juda xursandman.

伤心 — xafa

¹⁰⁴Hashimova Sabohat. Xitoy tili grammatikasi. – Toshkent: «Extremum-Press», 2017. – B. [7].

¹⁰⁵Artikova Z.Z. 把“ba” fe‘lining ayrim polisemik xususiyatlari. International scientific and practical conference Uzbekistan-China: development of historical-cultural, scientific and economic relations. (E)ISSN: 2181-1784 4(23), Nov., 2024.

¹⁰⁶Горелов В. И. Лексикология китайского языка. Учебное пособие. – Москва: «Просвещение», 1984. – С. [10].

¹⁰⁷Artikova Z.Z. Xitoy tili 把“ba” iyeroglifining polifunksional xususiyatlari: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2025. – B. 22.

¹⁰⁸Hashimova Sabohat. Xitoy tili grammatikasi. – Toshkent: «Extremum-Press», 2017. – B. [6].

¹⁰⁹Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Xolmanova Z., Majidova R., Sultonova Sh. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). Darslik. – Toshkent, 2020. – B. [156].



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



她听到这个消息很伤心。

U bu xabarni eshitib juda xafa bo'ldi

爱心 — mehr, sevgi

我们要有爱心帮助别人。

Biz boshqalarga yordam berish uchun mehribon bo'lishimiz kerak.

同情心 — hamdardlik

2. Aqliy jarayon (fikr, ong)

O'ylash va anglash bilan bog'liq:

想 — o'ylamoq

我在想一个问题。

Men bir masala haqida o'ylayapman

忘 — unutmoq

我忘了你的名字。

Men sening ismingni unuttim.

3. Ruhiy holat (psixologik holat)

Ichki kechinmalar:

放心 — xotirjam bo'lmoq

妈妈很担心我。

Onam men uchun juda xavotirda.

紧张 — hayajon, asabiylik

4. Xulq va sifat (fe'l-atvor)

Insonning xarakteri:

耐心 — sabrli

老师很有耐心。

O'qituvchi juda sabrli.

细心 — e'tiborli

她做事很细心。

U ishni juda e'tibor bilan qiladi.

粗心 — beparvo

他太粗心了。

U juda beparvo.

心 (xīn) fe'llar bilan birikib, insonning ichki hissiy munosabati yoki ruhiy reaksiyasini bildiradi. Ya'ni harakat oddiy emas, balki yurak (qalb) orqali amalga oshadi.

关心 (guānxīn) — g'amxo'rlik qilmoq

我很关心你。

Men senga juda g'amxo'rlik qilaman.

担心 (dānxīn) — xavotir olmoq



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



妈妈担心我。

心 (xīn) boshqa sifat bilan birikib, yurakning yoki ichki holatning hissiy sifatini bildiradi. Ya’ni bu birikmalar insonning ruhiy kechinmalari yoki hissiyotlarini ifodalaydi.

开心 (kāixīn) — xursand

我今天很开心。

Men bugun juda xursandman.

• 伤心 (shāngxīn) — xafa

她听到消息很伤心。

U bu xabarni eshitib juda xafa bo‘ldi.

Xitoy iyerogliflarida 心 ba’zan 小 shaklida qisqargan holda boshqa iyerogliflar ichida keladi. Bu holatda u semantik komponent bo‘lib, so‘zga ichki holat, hissiyot yoki ong bilan bog‘liq ma’no qo‘shadi. 想 (xiǎng) — o‘ylamoq

• 小 - yurak 相 - qarash/ko‘rish bilan radikal sifatida ishtirok etib o‘ylamoq degan manoni anglatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 心 iyeroglifi Xitoy tilidagi eng markaziy va polisemantik belgilaridan biridir. U nafaqat jismoniy yurakni bildiradi, balki insonning hissiyotlari, ruhiy holati, fikrlari, xarakteri va ichki niyatlarini ifodalashda asosiy vositadir. 心 turli birikmalarda – fe’l, sifat yoki radikal sifatida (小) – keng qo‘llanilib, insonning ichki dunyosini boy va aniq tarzda ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 心 iyeroglifi boshqa iyerogliflarga ichki ma’no va hissiy rang qo‘shadi, hissiyot, ong va motivatsiyani aks ettiradi. Xitoy madaniy va falsafiy kontekstda u insonning ichki markazi sifatida qaraladi va axloqiy qaror, iroda hamda ruhiy kechinmalar bilan bog‘liq. Shuning uchun 心 iyeroglifi Xitoy tilida doimiy ishlatiladigan, leksik-semantik jihatdan keng qamrovli va tilni boyituvchi muhim komponent hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR

1. I. Yo‘ldoshev, S. Muhamedova, Z. Xolmanova, R. Majidova, Sh. Sultonova. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish): darslik. – Toshkent, 2020.
2. Горелов В. И. Лексикология китайского языка: учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1984.
3. Artikova Z.Z. Xitoy tili 把“ba” iyeroglifining polifunksional xususiyatlari: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2025. – В. 22.
4. Hashimova S. Xitoy tili grammatikasi (现代汉语语法). – Toshkent: Extremum-Press, 2017.
5. Shuhratova, O. M., & Artikova, Z. Z. (2025). Xitoy va ingliz tillari lingvomadaniyatida ko‘k rang tasviri. Innovative methods of teaching foreign languages, modern approaches in



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



translation studies and philological research mavzusidagi xalqaro ilmiy -amaliy konferensiya materiallari, 1050-bet. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15567950>

6. Телия В. Н. Русская фразеология; сем антический, прагматический и лингвокультурологический аспекты -М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996.

7. Artikova Z.Z.把“ba” fe’lining ayrim polisemik xususiyatlari. International scientific and practical conference Uzbekistan-China: development of historical-cultural, scientific and economic relations. (E)ISSN: 2181-1784 4(23), Nov., 2024.

